



## **BOSHLANG'ICH SINIF O'QUV JARAYONIDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING METODIK ASOSLARI**

**Choriyeva Saida Allaberdi qizi**

DTPI pedagogika fakulteti, Boshlang'ich ta'lim  
yo'nalishi 2 –bosqich 106-BTguruh talabasi  
choriyevasaida87@gmail.com

**Husanova Sadoqat O'lmasbek qizi**

DTPI pedagogika fakulteti, Boshlang'ich ta'lim  
yo'nalishi 2 –bosqich 106-BTguruh talabasi  
suyunovasarvinoz285@gmail.com  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17339022>

**Annotatsiya:** Mazkur maqola boshlang'ich sinflarda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, o'quv jarayonini tashkil etish usullari va shakllari to'g'risidagi umumiy xulosalarga bag'ishlangan. Sinfdan tashqari o'qish darslarida innovatsion texnologiyalarni qo'llash usullari bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** pedagogik texnologiya, pedagogik ta'sir ko'rsatish, rag'batlantirmoq, bilim, hissiyot, xulq-atvor, psixologik xususiyatlar, innovatsion texnologiyalar, kitobxonlik, pedagogik o'yinlar.

**Abstract:** This article is devoted to general conclusions about modern pedagogical technologies, methods and forms of organizing the educational process in elementary school. In extracurricular activities, the use of innovative technologies is provided.

**Keywords:** pedagogical technology, pedagogical influence, motivation, cognition, emotion, behavior, psychological features, innovative technologies, reading, pedagogical games, pedagogical technologies.

**Аннотация:** Данная статья посвящена общим выводам о современных педагогических технологиях, методах и формах организации образовательного процесса в начальной школе. Во внеурочной деятельности предусмотрено использование инновационных технологий

**Ключевые слова:** педагогическая технология, педагогическое воздействие, мотивация, познание, эмоция, поведение, психологические особенности, инновационные технологии, чтение, педагогические игры, педагогические технологии.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining har bir darsni tashkil etish uchun turli didaktik o'yinlardan foydalanishlari yaxshi samara beradi. Chunki 6-7 yoshli bolalar hayotida maktab davri ancha murakkab davr bo'lib, bolalar oldida jiddiy sinov turadi. Bola yangi hayot – maktab hayotiga kirib boradi. Endi u yangi jamoaning a'zosi ekanligini his etishga, intizomga bo'ysunishga, yangi rejimga moslashishga majbur bo'ladi. Bola yosh bo'lishiga qaramay, endi uning maktabda o'qish, uy vazifalarini bajarish, murakkab materiallarni o'rganish kabi zarur yumushlari ko'p. Muhimi, o'yindan maktabga, kundalik majburiy va davomli mehnatga o'tish bola hayotida tub burilishdir. Hatto, maktabgacha tarbiya muassasalaridan kelgan bolalar uchun ham bu oson kechmaydi. Uydan maktabga kelgan bolalarga esa yana ham qiyin. Ayniqsa, sinfdan 40–45 daqiqali darsda o'tirish, tinglash va topshiriqlarni bajarish, uzoq aqliy mehnat bolani tez toliqtiradi. Bola maktabdan, o'qishdan sovib ketishi mumkin. Shuning uchun ham o'qituvchilar bolalarning maktabdagi hayotini qiziqarli tashkil etishga intilishlari, motiv hosil qilish va uni rivojlantirishga harakat qilishlari lozim. Motiv o'z-o'zidan hosil bo'lmaydi. Uni bolalar yoshiga va psixologik xususiyatlariga mos didaktik o'yinlar va mustaqil ishlar vositasida



hosil qilish mumkin. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda darslarni qiziqarli olib borish natijasida o'quvchilarni darsga jalb etish samarali bo'ladi. Shunday darslarda bolalar diqqati to'liq jalb etiladi, xotirasi yaxshi ishlaydi. Motivlar o'quvchilarning bilimlarini chuqur egallashlariga yordam beradi. Shuning uchun ham boshlang'ich sinf o'qituvchilari ta'lim jarayonini qiziqarli motivlar asosida tashkil etishga e'tibor qaratishlari zarur. "Pedagogik texnologiya" tushunchasining vujudga kelishi, ta'limning ilk tashkiliy va metodik shakllarining vujudga kelishi bilan bog'liq. Individual ta'lim o'quv-tarbiya jarayonining eng qadimiy tashkiliy shakli bo'lib, u dastavval qadimgi Yunonistonda paydo bo'lgan edi. O'qituvchi bir o'quvchi bilan ishlab, ta'limni bevosita tashkil etgan, boshqargan, nazorat etgan. O'qituvchi matnlarni o'qib bergan yoki bolalariga o'qitib so'zlatgan. Qoida va ta'riflarni yodlash, jismoniy mashqlarni bajarish musiqa asboblari u yoki bu kuyni ijro etish yo'llari bilan bolalar hayot, san'at, notiqlik, jismoniy madaniyatga oid bilimlarni o'zlashtirgan. Keyinchalik individual ta'lim o'rnini guruhlar asosida o'qitish egallagan. O'rta asrlarga kelib qoidalarni yodlash, bir xil tipdagi mashqlarni bajarish, og'zaki savol-javob, yuqori pog'onalarda esa ma'ruza, munozara ta'limning yetakchi usullariga aylana boshlagan. Bu holat asta-sekin sinf-dars sistemasini keltirib chiqarib, yangi texnologiyalarni kelib chiqishiga zamin hozirlagan.

1. Pedagogik ta'sir ko'rsatish. Pedagogika o'z metodlarini yo'q joydan yaratmaydi. U hayotdan kishilar xulq-atvorining real omillarini, bolalar hayotini pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tarzda tashkil etish vazifalariga javob beradiganlarini tanlab oladi, ulardan tarbiyaviy ishda pedagogik ta'sir ko'rsatish usullari sifatida foydalanadi. Pedagogik ta'sir ko'rsatish metodikasi bolalarning ijtimoiy-foydali faoliyatini pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tarzda tashkil etishga xizmat qiladigan vositalar tizimidan iboratdir. Bu vazifalar tarbiyalanuvchi shaxsiga qaratilgan bo'lib, bolalarning xulq-atvorini rag'batlantiradi, qiyin va murakkab vazifalarni quvonch, ijodiy zavq-shavq manbaiga, har bir o'quvchining shaxsiy muddaosiga aylantiradi.

2. Pedagogik ta'sir ko'rsatishning asosiy usullari. Pedagogik ta'sir ko'rsatishning asosiy usullari – ishontirish, talab, istiqbol, rag'batlantirish va jazolash, jamoatchilik fikridir. O'zaro hamkorlikda ta'sir ko'rsatishning natijasi ishontirishdir. U haqiqiy va soxta turlarga bo'linadi. Ishonch 3 tarkibiy qismdan iborat: 1. Bilim; 2. Hissiyot; 3. Xulq-atvor. U tushunish – kechinma – qabul qilish orqali amalga oshadi. Ishontirish shakllari quyidagilar: ma'ruza, bahs, munozara, suhbat, hikoya qilish, dalillash, ko'rsatish (namoyish qilish), shaxsiy namuna. Pedagogik talab – ta'lim-tarbiya jarayonida ko'p qo'llaniladigan usullardan biri bo'lib, u tarbiyachi va tarbiyalanuvchi orasidagi shaxsiy munosabatlarda namoyon bo'ladi. Pedagogik ta'sir ko'rsatish usuli bo'lgan talab bilan jamoani tashkil etish metodi sifatidagi yagona pedagogik talablarni farqlay bilish lozim. Agar yagona pedagogik talablar bolalarning ijtimoiy foydali faoliyatini rag'batlantirish mazmunini, jamoani jipslashtirishda pedagoglar bilan bolalarning harakatlari birligiga erishish yo'llarini ta'minlansa, talab esa xulq-atvor va faoliyat normalarini, bolalarning xatti-harakatlari hamda ishlarida amalga oshirish usullaridan iboratdir. Istiqbol ta'sir ko'rsatishning juda ta'sirchan usuli bo'lib, u bolalarning xatti-harakatlarini ular oldiga maroqli, qiziqarli maqsadlar qo'yish yo'li bilan ta'minlaydi, bu maqsadlar ularning shaxsiy intilishlari, qiziqish va muddaolariga aylanadi. Bu usul maktab o'quvchilarida shaxsning eng muhim fazilatlaridan biri bo'lgan maqsadga intiluvchanlikni shakllantirishga yordam beradi.



Rag'batlantirish va jazolash tarbiyaning eng an'anaviy usuli bo'lib, tarbiyalanuvchilar xulq-atvoriga tuzatish kiritishni, ya'ni foydali xatti-harakatlarni qo'shimcha rag'batlantirishni va tarbiyalanuvchilarning nomaqbul xatti-harakatlarini to'xtatishni ta'minlaydi, bunda ularning huquq, burchlarini kengaytirish yoki cheklash, ularga axloqiy ta'sir ko'rsatish yo'lidan foydalaniladi. Rag'batlantirish va jazolash metodi o'ziga xos xususiyatga ega bo'lganligi sababli uni qo'llashda juda ehtiyot bo'lish lozim. Jamoatchilik fikri ta'sir ko'rsatishning qudratli usuli bo'lib, tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy foydali faoliyatini har tomonlama va muntazam rag'batlantirib borishni ta'minlaydi, jamoaning tarbiyaviy vazifalarini ancha to'liq amalga oshiradi. Pedagogik ta'sir ko'rsatish usullaridan samarali foydalanishning zarur sharti pedagogikaning tarbiyalanuvchilarga bo'lgan munosabatlarining chinakam insonparvarligidir.

3. Pedagogik ta'sirning ta'lim-tarbiyadagi o'rnini. Respublikamiz istiqloлга erishgan hozirgi davrda shaxsga chuqur, asosli va umumiy talablar qo'iladi, lekin ikkinchi tomondan, shaxsga katta hurmat ko'rsatiladi. Bu shaxsga bo'lgan talablarni va unga bo'lgan izzat-hurmatni birga qo'shish – ikki xil zarur shart bo'lib, pedagogning bolalarga bo'lgan munosabatlarining chinakam insonparvarligidir. Boshlang'ich ta'lim. Konsepsiyasida boshlang'ich ta'limning maqsad va vazifalari aniq belgilab berilgan. Chunonchi, bolalarning ongi va tafakkurida mavjud bo'lgan yashirin imkoniyatlarni aniqlash va rivojlantirish kichik maktab yoshidagi bolalarda ta'limning dastlabki davridan boshlab yangi imkoniyatlarni, o'quv materialini muvaffaqiyatli o'zlashtirishgagina emas, balki hayotiy muammolarni yechishga ham tayyorlaydi, o'quvchilarda o'rganish va ta'lim jarayoniga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Shu bois, boshlang'ich ta'lim sinfdan tashqari o'qish darslarida – SWOT – tahlil metodi, – FSMU texnologiyasi, – Charxpalak, – Svetafor, – Qor parchalari – Tushunchalar tahlili kabi innovatsion texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarda mantiqiy fikrlashni o'stiradi. Sinfdan tashqari o'qish darslarida suhbat o'qilgan kitobni muhokama qilishda ham, yangi kitob tavsiya qilishda ham qo'llanadi; suhbat elementlari o'qilgan asardan asosiy mazmunni ajratish uchun, voqealar izchilligini, bo'lgan vaqti va o'rnini, bog'lanishini belgilashga yordam beradi. Suhbat uchun savol tuzishda o'quvchilarning mustaqilligi, hayotdan, o'qilgan boshqa kitoblardan qo'shimcha javob berishi hisobga olinadi. Sinfdan tashqari o'qish darslarida qiziqarli mashqlarga alohida o'rin beriladi. Bunday darslarda adabiy viktorina (bir mavzu ustida savol-javob o'yini), eng yaxshi insholar, illyustratsiyalar, topishmoq topish, konkurslar o'tkazish, topishmoqlar albomini tuzish, tayyorgarliksiz jamoaviy yoki individual ravishda ertak to'qib aytish, o'quvchilar hayoti haqida, yozuvchilarning chuqur ma'noli gap (hikmatli so'z)lari va maqollar, latifalar aytish mumkin. Ba'zan o'qituvchilar bunday darslarda innovatsion texnologiyalaridan "Hazil minuti", "5 sekund o'ylash uchun", "Topishmoqlarni top", "Bilimdonlar klubi" kabi qiziqarli mashg'ulotlarni doimo o'tkazib turadilar. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, innovatsion texnologiyalarni dars jarayonida qo'llash ta'limning an'anaviy tizimidan farqli ravishda innovatsion texnologiyalar asosida o'qish darslarining har bir jarayonida o'quvchining faolligiga asoslangan, mustaqil faoliyati, o'zlashtirish qobiliyatini hisobga olgan holda, ta'lim jarayoniga to'liq jalb etilishi yotadi. Innovatsion pedagogik texnologiyalarga asoslangan darsning an'anaviy darsdan farqi shuki, bu darsda o'quvchiga erkinlik muhitini yaratib berishda ko'rinadi. Bu imkoniyat o'quvchiga hech qanday tazyiq o'tkazmasdan, uning shaxsiyatiga tegmasdan savollar berish orqali do'stona munosabatdagi o'quv muhitini yaratishidir. O'qitishning turli texnologiyalari pedagogik o'yinlar, qiziqarli boshqotirmalar,



rasmi ko'rinisdagi rebuslar o'quvchilarda o'qish darslariga qiziqishlarini orttirish ko'nikmasini shakllantiradi. O'quvchilarda zamonaviy ta'limni tashkil etishda innovatsion pedagogik texnologiya usullaridan foydalanishning mohiyati-mazmunini tushuntirish, ularda muayyan tasavvurlarni hosil qilishga erishish maqsadga muvofiqdir. Innovatsion pedagogik texnologiyada kutilgan natijaga erishish uchun faqat o'qituvchi emas, o'quvchilarning shaxsiy ehtiyojlari, talablari va xislatlariga asoslangan holda, ko'zda tutilgan maqsad amalga oshirishi va natijali bo'lishini rejalashni o'qituvchi o'z oldiga vazifa qilib qo'yadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. R. Mavlonova, N. Raxmonqulova. Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi. T., 2009-y.
2. Г.Э. Саидова Ситуация свободного выбора на уроках математики в начальных классах Вестник науки и образования, 2019. – С. 35–37.
3. Н.Б. Сайфуллаева, Г.Э. Саидова Повышение эффективности занятий, используя интерактивные методы в начальном образовании Научный журнал, 2019. – С. 101–102.
4. Г.Э. Саидова, С.Ф. Саноккулова Эффективность использования технологии дидактического игрового образования в начальных классах. European research, 2020. – С. 118–120.
5. Г.Э. Саидова Развитие логического мышления учащихся на уроках математики в начальной школе. International scientific review of the problems of philisophy, psychology. 2019.
6. R.Z. Samadovna, K.S. Narzullayevna, S.G. Ergashevna Technology for the development of logical thinking in students in primary school Journal of Critical Reviews 7 (6), 485–491.
7. Г.Э. Саидова Использование современных педагогических технологий на уроке математики Ученый XXI века 12, 47. 2018.
8. S.G. Ergashevna, S.S. Furqatovna Modern Forms of Mathematics in Primary Schools Middle European Scientific Bulletin 8. 2021.
9. G.E. Saidova, N.B. Sayfullayeva Modern teaching technologies in teaching mathematics in elementary grades European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences 7. 2019.
10. S.G. Ergashovna Development of creative thinking in mathematics lessons in primary grades Asian journal of multidimensional research 10 (5), 715–719. 2021.
11. Nigora, Adizova, and Adizova Nodira. "Alisher Navoiyning tibbiy qarashlari". Conferences. 2021.
12. Bakhtiyorovna, Adizova Nigora, and Adizova Nodira Bakhtiyorovna. "The role of the fun genre in children's spiritual development". Middle European Scientific Bulletin 4 (2020): 38-40